



## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LİMİ VAZİRİNİNG BUYRUG'I

### O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydag'i 134-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda ilg'or tajribaga ega bo'lgan va faoliyati davomida zamonaviy metodikalarini qo'llab kelayotgan o'qituvchilarni aniqlash va ularning ilg'or tajribasini ommalashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibi (keyingi o'rnlarda - ommalashtirish tartibi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'qituvchilarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish bo'yicha maxsus platforma (keyingi o'rnlarda - maxsus platforma) Namangan va Jizzax viloyatlarida tajriba-sinovdan o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

2022-2023-o'quv yilining 3-choragiga qadar o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilgan holda ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish ishlarini yanada takomillashtirish;

maxsus platformaga keladigan ishlarni baholash uchun har bir fandan tanlov va jamoatchilik asosida 7 nafar a'zodan iborat ekspertlar jamoasini tuzish va ular faoliyatini nazorat qilib borish;

markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-metodik kengashlarida fanlar yo'nalishi bo'yicha ilg'or tajribalarni muhokama qilish va ommalashtirishga tavsiya etish;

o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini maxsus platforma orqali ommalashtirish hamda ularni markazning ijtimoiy tarmoqlardagi veb-saytlarida yoritib borish;

ilg'or tajribaga ega bo'lgan va faoliyati davomida zamonaviy metodikalarini qo'llab kelayotgan o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish va har chorak yakunida vazirlikka ma'lumot kiritib borish;

ishlari ommalashgan eng yaxshi o'qituvchilarni Xalq ta'limi vaziri jamg'armasidan ustama olishga tavsiya etish bo'yicha taklif kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Ta'limni raqamlashtirish boshqarmasi (S.Rahimboyev) maxsus platformani Xalq ta'limi vazirligi serveriga joylashtirish va uning texnik ta'minotini muntazam nazorat qilib borish ishlarini yo'lga qo'yisin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga ommalashtirish tartibi hamda maxsus platforma bo'yicha ma'lumotlarni joylardagi barcha pedagog xodimlarga yetkazish va tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinnbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Saidov

Toshkent sh.,  
2022-yil 25 - avqust,  
279 -son

Xalq ta'limi vazirining  
2022-yil 25 - avgust dagi  
249-sonli buyrug'iiga  
ILOVA

## O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish TARTIBI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xalq ta'limi tizimida o'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish (keyingi o'rirlarda – ommalashtirish tartibi deb ataladi) hamda xalq ta'limi tizimidagi tajribali pedagog kadrlar, jumladan, fan o'qituvchilari, metodistlar, boshqa pedagog xodimlar (keyingi o'rirlarda - talabgor)ning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi (keyingi o'rirlarda - Markaz) talabgorlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish bo'yicha yagona ishchi organ hisoblanadi.

3. Ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish – bu talabgor tomonidan o'quv jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or ish uslubini boshqalarga amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etish hisoblanadi.

### 2-bob. Ommalashtirish maqsadi

4. Umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or ish tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda xalq ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

Xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish ishlarini amaliyotga joriy etish tegishli sxema asosida amalga oshiriladi (*sxema 1-lovada*).

### 3-bob. Ommalashtirish bosqichlari

5. Talabgorlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish ishlari maxsus platforma orqali amalga oshiriladi.

Bunda, talabgor maxsus platformada o'ziga shaxsiy kabinetini yaratadi hamda ommalashtirishga tavsiya etiladigan ish uslubini metodik material sifatida to'g'ridan-to'g'ri elektron shaklda joylashtiradi.

6. Tayyorlagan metodik ishini matabda ommalashtirish uchun Metod birlashmaga yozma ravishda ariza bilan murojaat qiladi (*ariza namunisi 2-lovada*).

Metod birlashma talabgorning murojaatiga muvofiq, metodik ishini birlashmaga a'zo o'qituvchilar bilan birga ko'rib chiqadi hamda **zarur holda** dars jarayonida sinovdan o'tkazadi.

Ushbu metodik ishga metod birlashma tomonidan ijobiyl xulosa berilib, maktab miqyosida ommalashtirish uchun Pedagogik kengashga tavsiya etiladi. (*talabgorning metodik ishi qo'yilgan talabga javob bermasa yoki innovatsion yangiliklar joriy*

*qilinmagan bo‘lib salbiy xulosa berilsa, ushbu metodik ish asoslantirilib talabgorga qaytariladi).*

7. Metod birlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengash talabgorning ijobiy xulosa olgan metodik ishini maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirishni rad etish bo‘yicha qaror qabul qiladi (*metod birlashma bayoni namunasi 3-ilovada*).

o‘qituvchilarning maxsus platformasiga joylashtiriladigan ilg‘or metodik ishi ta’lim muassasasi metod birlashma tavsiyasi asosida pedagogika kengashida ko‘rib chiqilib, ommalashtirishga tavsiya etilgan bo‘lishi lozim (*pedagogik kengash namunasi 4-ilovada*).

8. Talabgor ilg‘or ish tajribasini tuman (shahar), hudud (viloyat), respublika miqyosida ommalashtirish uchun maxsus platformada talabgorning shaxsiy kabinetiga quyidagi hujjatlarni joylashtirishi lozim:

talabgor tavsiya etgan ish tajribaning ta’lim muassasasi miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilganligi to‘g‘risida pedagogika kengashi qarorining elektron (pdf) nusxasi;

ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan ish uslubi aks etgan metodik materialning tegishliligicha elektron (pdf) nusxasi, video mahsulotlar yoki ularning kombinatsiyasi yuklanadi.

Talabgor tomonidan ilg‘or ish tajribalarni ommalashtirishga doir metodik mahsulotlari quyidagi ketma-ketlikda va muddatlarda maxsus platformaga joylashtiriladi: (*maxsus platformadan foydalanish yo‘riqnomasi 5-ilovada*)

maxsus platformaga kirish;

ommalashtirish menyusini tanlash;

metodik mahsulotlarni yuborish uchun “tizimga kirish” tugmasi yordamida ro‘yxatdan o‘tish;

talabgor birinchi marta ro‘yxatdan o‘tishi uchun ERP orqali o‘tish tugmasini bosish;

talabgor telefon raqamini va JSHSHIR raqamini kiritish;

talabgor “yuborish” tugmasni bosadi va metodik mahsulotlari platformaga yuboriladi (*agarda talabgorning ERP bazasidagi ma‘lumotlari to‘liq bo‘lmasa, ish tajribasini ommalashtirish uchun tayyorlagan hujjatlarini joylashtirish imkon bo‘lmaydi, shunday holatda maktab ma‘muriyati va ERP bo‘yicha mas‘ul xodim orqali ma‘lumotlarni to‘ldirish lozim bo‘ladi*).

9. Talabgorning ilg‘or ish tajribalari maxsus platformaga fanlar kesimida (*fanlar ro‘yxati ilovada*) tanlanib yuboriladi.

10. Yuboriladigan materiallar uch xil yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

**birinchi yo‘nalish:** O‘quv metodik qo‘llanmalar (*o‘quv metodik qo‘llanmalar, tavsiyanoma pdf formatda yuboriladi*);

**ikkinchi yo‘nalish:** Dars ishlanmalar (*xalqaro tajribalarga asoslangan, ilg‘or interfaol metodlar bilan o‘tilgan yuqori saviyadagi bir soatlik namunali dars yoki to‘garak mashg‘uloti ishlanmasi*);

**uchinchchi yo‘nalish:** Video mahsulotlar (*darsdagi yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlardagi interfaol metodlarni yoritib bergen jarayonlar yoki shaxsiy innovatsion metodik tajribani tushuntirib beruvchi, davomiyligi 7 minutgacha bo‘lgan, hajmi 300 mb dan oshmagan videorolik*).

boshqa turli ishlar va talab darajasida bo‘limgan ishlar qabul qilinmaydi va ko‘rilmasdan qoldiriladi.

11. Talabgor o‘z shaxsiy sahifasini ro‘yxatdan o‘tkazib, 10-bandda ko‘rsatilgan 3 ta yo‘nalishdan faqat bitta yo‘nalish bo‘yicha o‘z ishini yuborishi mumkin.

**ilg‘or metodik ishlarni yuborish muddatlari:**

birinchi muddat 1-sentabrdan 1-oktabrgacha;

ikkinchi muddat 1-noyabrdan 1-dekabrgacha;

uchinchi muddat 1-yanvardan 1-fevralgacha;

to‘rtinchi muddat 1-martdan 1-aprelgacha.

talabgor ilg‘or metodik ishlarni har bir muddatda faqat bir marta yuborishi mumkin.

maxsus platformaga joylashtirilgan metodik materiallar tizimdagи foydalanuvchilar tomonidan tegishli muddatlarda muhokamadan o‘tkaziladi.

**12. Ilg‘or metodik ishlarni baholash mezonlari va tartibi.**

ilg‘or metodik ishlar ikki turda baholanadi:

**1-tur foydalanuvchi o‘qituvchilar tomonidan:**

birinchi muddat 1-oktabrdan 1-noyabrgacha;

ikkinchi muddat 1-dekabrdan 1-yanvargacha;

uchinchi muddat 1-fevraldan 1-martgacha;

to‘rtinchi muddat 1-apreldan 1-maygacha.

**2-tur birinchi turdan o‘tgan dastlabki 100 ta ish “ekspert guruhi” tomonidan baholanadi.**

ilg‘or metodik ishlar ro‘yxatdan o‘tgan, aynan o‘sha fan o‘qituvchisi bo‘lgan va o‘sha ilg‘or metodik ishlarni yuklab olgan foydalanuvchilar tomonidangina baholanadi (*boshqa yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari baholashi mumkin emas*).

baholash ballari minimal 1 (bir) balldan maksimal 10 (o‘n) ballgacha bo‘ladi.

1-tur baholash bosqichi ilg‘or metodik ishlar qo‘yilgan vaqtidan tegishli muddat tugagungacha davom etadi.

baholash muddatlari tugagach, barcha ilg‘or metodik ishlar yuborilgan har bir fanlar bo‘yicha natijalar alohida hisoblanadi (*fanlar ro‘yxati 6-ilovada*).

**Foydalanuvchi o‘qituvchilarning baholash bosqichi quyidagicha:**

A) Foydalanuvchi o‘qituvchilarning qo‘ygan ballarning o‘rtacha bali bilan (10 ballik sistemada);

B) har bir fan alohida tarzda eng ko‘p ovoz bergenlar soni aynan o‘sha fan yo‘nalishi uchun maksimal 10 ball deb qabul qilinadi.

Qolgan, undan kam sonda ovoz olgan talabgorlarga berilgan ovozlar soni yuqoridagi 10 ball olgan talabgorga nisbatan to‘g‘ri proporsional tarzda hisoblab boriladi va 10 ballik tizimda tegishli ball beriladi.

C) “A” hamda “B” ballar qo‘shilib ikkiga bo‘linadi va yakuniy ball hisoblanadi. Yakuniy ball natijasiga qarab eng yuqori 100 ta o‘rinlari aniqlanadi (*agar oxirgi 100-o‘rinlardagi ishtirokchilar ballari teng kelib qolsa, ular hammasi qabul qilinadi*).

**Ekspertlarning baholash bosqichi:**

Ekspert guruhi tarkibi fanlar kesimida kamida 7 nafardan iborat bo‘ladi.

Ekspert guruhi foydalanuvchilar muhokamasi va baholashidan o'tgach eng yuqori 100 ta ishni onlayn baholash tugagach 20 kungacha bo'lgan muddatda qayta baholaydi hamda ommalashtirishga tavsiya etish yoki etmaslik haqida xulosa beradi.

Baholagandan so'ng, natijani Ilmiy metodik kengashga taqdim etadi.

Bunda:

1) Fanlar kesimida:

a) eng yuqori dastlabki 20 ta o'rinn Respublika miqyosida ommalashtirilgan ilg'or metodik ish;

b) 21-o'rindan 50-o'ringacha turgan ilg'or metodik ishlar hududiy (viloyat) miqyosida ommalashtirilgan ilg'or metodik ishlar;

c) 51-o'rindan 100-o'ringacha turgan ilg'or metodik ishlar tuman miqyosida ommalashtirilgan ilg'or metodik ishlar deb topiladi.

d) agar 100-o'rinda turgan hujjatlar bir nechta bo'lsa, ekspertlar baholashidan so'ng 51-o'rindan keyingi barchasi tuman miqyosidagi ommalashtirilgan deb qabul qilinadi.

e) ekspert xulosalariga ko'ra ishlar ommalashtirishga tavsiya etilmasligi ham mumkin.

baholash natijalari tegishli muddat tugagan kundan 15 kun muddatda Respublika ta'lim markazi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

tegishli g'oliblarning egallagan natijalariga mos ommalashganlik haqidagi sertifikat beriladi (*maxsus sertifikat namunasi 7-ilovada*).

sertifikat berilgan kundan boshlab, kelgusi o'quv yilidan uch o'quv yili muddatiga amal qiladi.

13. Agar tegishli fanlar bo'yicha yuborilgan ishlar 200 tadan oshmasa u holda ekspertlar yuborilgan ishlarning 50% qismini baholaydi.

Bunda, ekspertlar guruhi baholashiga ko'ra eng yuqori ball olgan ilg'or ish tajribalarning dastlabki 20 % Respublika miqyosida, keyingi 30 % hududiy (viloyat) miqyosida va qolgan 50 % tuman (shahar) miqyosida ommalashtiriladi.

14. Ilg'or metodik ishlarga qo'yiladigan talablar:

birinchi talab: ilg'or metodik ishlar boshqa kishidan ko'chirilmagan, o'z shaxsiy ilg'or metodik ishlari bo'lishi shart. Agar yuborilgan ish boshqa tegishli iqtibos ko'rsatilmagan holda birovdan ko'chirilgan yoki ayni o'sha ish ekanligi aniqlansa, ishni yuborgan talabgorning ish joyiga ushbu talabgor Nizomni buzganligi uchun tegishli ogohlantirish berishi tog'risida xat yuboriladi.

ikkinchi talab: yuborilgan ishlar aniq bir yoki bir nechta metodikani yoritib bergen bo'lishi;

uchinchi talab: video mahsulotlar vaqt 7 minutgacha, hajmi 300 mb dan oshmasligi;

to'rtinchi talab: pdf fayllar Times New Roman 14 shriftida bo'lishi kerak.

15. Ilmiy-metodik kengash muhokamasi davrida quyidagilar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-metodik kengashi ekspert guruhi tomonidan taqdim etilgan baholash natijalari asosida tegishli qaror qabul qiladi.

qarorda:

talabgorning tavsiya etgan ish tajribasi tuman (shahar) miqyosida ommalashtirilsin;

talabgorning tavsiya etgan ish tajribasi hudud (viloyat) miqyosida ommalashtirilsin;

talabgorning tavsiya etgan ish tajribasi respublika miqyosida ommalashtirilsin;

talabgorning tavsiya etgan ish tajribasi ommalashtirishga tavsiya etilmasin degan bandlardan birini qabul qiladi;

Markaz Ilmiy-metodik kengashning ish tajribani o'rganish va ommalashtirish yuzasidan yakuniy qarori asosida talabgor uchun ish tajribasini ommalashtirish darajasi ko'rsatilgan, qat'iy ro'yxatga olinadigan va raqamlanadigan ish tajribasi ommalashtirilganligi to'g'risida "sertifikat" rasmiylashtiradi va 2 kun muddatda platformaga joylashtirib e'lon qiladi.

Talabgor yuqorida qayd etilgan manzilga ommalashtirish sertifikati joylashtirilgandan so'ng uni yuklab oladi.

16. Quyidagi xalq ta'limi tizimi xodimlarining ish tajribalari to'g'ridan-to'g'ri respublika miqyosida ommalashtiriladi:

Xalq ta'limi vazirligining buyrug'i asosida tashkil etiladigan fan o'qituvchilari o'rtasidagi tanlovlarning respublika bosqichi 1-2-3-o'rinni g'oliblari ish tajribasi;

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan darslik va o'quv-metodik majmualari (darslik, o'qituvchi kitobi, o'quvchi mashq daftari, o'quv qo'llanma) mualliflari, taqrizchilarining ish tajribalari;

o'quvchilari fan olimpiadaning respublika bosqichida 1-o'rinni hamda xalqaro olimpiadalarda 1-2-3-o'rinni olgan fan o'qituvchilarining ish tajribalari;

Milliy o'quv dasturi doirasidagi seminarlarda trener bo'lib, eng faol ishtirok etib, ta'lim islohotlarini amalga oshirishda o'z hissasini qo'shgan pedagoglar.

#### **4-bob. Apellyatsiya komissiyasi**

17. Apellyatsiya komissiyasi Respublika ta'lim markazining Ilmiy metodik kengashi tarkibiga kirmagan uch nafargacha fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

18. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ommalashtirishga tavsiya etilgan talabgorlarning arizalari ommalashtirish natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni davomida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida ekspertlar a'zolari, talabgor (onlayn va oflayn) ishtirok etishi mumkin.

19. Ekspertlar tomonidan baholangan talabgorning ilg'or ish tajribasi baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda apellyatsiya komissiyasi ekspertlar a'zolarining qarorini bekor qilish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

20. Apellyatsiya komissiyasi ekspertlar a'zolariga natijalar bo'yicha izoh berib, ommalashtirish natijalarini o'zgartirishi mumkin va bunda ekspertlar a'zolari qarori gayta tasdiqlanadi.

#### **5-bob. Yakuniy qoidalar**

21. Maxsus platformada talabgorning ish tajribasi e'lon qilingan kundan boshlab ommalashtirilgan hisoblanadi va kelgusi o'quv yilidan uch o'quv yili muddatga amal qiladi.

22. Ish tajribalari ommalashgan eng ilg‘or o‘qituvchilarni Respublika ta‘lim markazining tavsiyasiga ko‘ra vazirlikning tegishli ishchi guruhi qarori bilan vazir jamg‘armasidan moddiy rag‘batlantirish mumkin.

23. Ommalashtirishga tavsiya etilmagan ish tajribalarga Ilmiy-metodik kengashning yakuniy qarorida qayd etilgan izohdan boshqa qo‘srimcha xulosalar berilmaydi.

24. Talabgorlar ish tajribalarini o‘rganish va ommalashtirish ishlarida qatnashgan mas‘ul xodimlar Markazning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha moddiy rag‘batlantirilib borilishi mumkin.

25. Ushbu Nizom vazirlik tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va  
faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy  
metodikalarini ommalashtirish Tartibiga  
1-ILova

## Xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlarning ilg'or ish tajribalarini o'maliyotga joriy etish ommalashtirish ishlarini amaliyotga joriy etish

### SXEMASI

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora tadbirlar	Bajarish muddati
1-qadam	Talabgor	Tayyorlagan metodik ishini maktabda ommalashtirish uchun Metod birlashmaga yozma ravishda ariza bilan murojaat qiladi.	O'quv yili davomida
2-qadam	Metod birlashma	Metod birlashma talabgoring muvofig, metodik ishini birlashmaga a'zo o'qituvchilar bilan birga ko'rib chiqadi handa <b>zarur holda</b> dars jarayonida sinovdan o'tkazadi.	1 hafta muddatda
3-qadam	Metod birlashma	Ushbu metodik ishga metod birlashma tomonidan ijobiy xulosa berilib, maktab miqyosida ommalashtirish uchun Pedagogik kengashga tavsya etiladi. <i>(Talabgoring metodik ishi qo'yilgan talabga javob bermasa yoki innovation yangiliklar joriy qilinmagan bo'tib salbiy xulosa berilsa, ushbu metodik ish asoslanirilib talabgorgia qaytariladi).</i>	3 kun muddatda
4-qadam	Pedagogik kengash	Metod birlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengash talabgoring ijobiy xulosa olgan metodik ishini maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirishni rad etish bo'yicha qaror qabul qiladi.	3 kun muddatda
5-qadam	Talabgor	Metodik ishi maktab pedagogik kengashida ko'rib chiqilib, ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ish tajribaning tegishli hujjatlar elektron nusxasini (pdf yoki video) metodik material shaklida maxsus platformaga shu o'quv yili davomida joylashtiradi.	1-oktyabrgacha; 1-dekabrgacha; 1-fevralgacha;
6-qadam	Jamoatchilik vakillari	Maxsus platformaga joylashtirilgan metodik materiallar jamoatchilik ( <i>tegishli fan o'qituvchilari</i> ) muhokamasidan o'tkaziladi. Bunda, talabgor yuborgan metodik materialga tegishli fan o'qituvchilari uning metodik materiali bilan tanishib chiqib, shu joyning o'zida <b>1</b> balldan <b>10</b> ballgacha baholaydi va izoh yozadi.	1-aprelgacha; 2-oktyabrdan 1 noyabrgacha; 2-dekabrdan 1-yanvargacha; 2-fevraldan 1-martgacha; 2-apreldan 1-maygacha;

<b>7-qadam</b>	Markazning Ekspert guruhi	Har bir fandan tuzilgan 7 nafardan iborat ekspert guruhi jamoatchilik <i>(Agar tegishli fanlar bo'yicha yuborilgan ishlarning 50% qismini baholaydi).</i>	20-noyabrgacha; 20-yarvargacha; 20-martgacha; 20-maygacha;
<b>8-qadam</b>	Markazning Ekspert guruhi	Ekspertlar guruhi talabgorning ish uslubini o'rganib chiqib, baholagandan so'ng, natijani Markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-metodik kengashga taqdim etadi ( <i>tegishli yo'nalishi bo'yicha</i> )	3 kun muddata
<b>9-qadam</b>	Markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy- metodik kengashi	Talabgorning ish tajribasi yuzasidan taqdim etilgan metodik materialni o'rganib chiqadi va ekspert guruhi tomonidan taqdim etilgan baholash natijalari asosida ommalashtirishga tavsiya etish yoki tavsiya etmaslik bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi.  <i>Ekspertlar guruhi baholashiga ko'ra loyiq deb topilgan eng yuqori ball olgan ilg'or ish tajribalarning dastlabki 20 foyizi Respublika miyosida, keyingi 30 foyizi hududiy (viloyat) miyosida va qolgan 50 foyizi tuman (shahar) miyosida ommalashiriladi.</i>	5 kun muddata
<b>10-qadam</b>	Markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy- metodik kengash	Qabul qilingan qaror bayoni asosida ishlari ommalashtirilgan o'qituvchilar tegishli o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-metodik kengashining yig'ilishlar qayd etish daftariга yozildi.	1 kun muddata
<b>11-qadam</b>	Markaz	Markazning o'quv fanlari va fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-metodik kengashi tomonidan ilg'or metodik ishlari ommalashtirishga tavsiya etilgan talabgoriga maxsus sertifikatning elektron shakli maxsus platformaga joylashtiradi va ommalashtirish natijasini e'lon qiladi.	2 kun muddata
<b>12-qadam</b>	Talabgor	"Ish" tajribasi ommalashtirilganligi to'g'risida sertifikat'ni talabgor platformadan yuklab oladi.	Qaror e'lon qilingan kundan boshlab

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati  
davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini  
ommalashtirish Tartibiga  
2-ILOVA

**Tayyorlagan metodik ishini mакtabda ommalashtirish uchun Metod birlashmaga  
yozma ravishda ariza berish namunasi**

\_\_\_\_\_ tumani -umumiyl o‘rtat a’lim  
mактabi \_\_\_\_\_ metod  
birlashmasi rahbari \_\_\_\_\_ ga  
shu maktabning \_\_\_\_\_ fani  
o‘qituvchisi \_\_\_\_\_ dan

**A R I Z A**

Men, \_\_\_\_\_ O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi vazirining 2022 yil \_\_\_\_\_ "O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va  
faoliyatida qo‘llagan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini tasdiqlash  
to‘g‘risida”gi \_\_\_\_\_ -sonli buyrug‘iga asosan o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va  
faoliyatida qo‘llagan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibining 6-bandiga  
muvofiq ushbu \_\_\_\_\_ ni  
*(metodik qo‘llanma, dars ishlancha yoki video mahsulotni nomi yoziladi)*

ommalashtirishga tavsiya etish uchun o‘rganib chiqishingizni so‘rayman.

Men o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyatida qo‘llagan zamonaviy metodikalarini  
ommalashtirish tartibi bilan to‘liq tanishib chiqdim va taqdim etayotgan ish uslubim ushbu tartib  
mezonlari asosida baholanishiga roziman.

Ariza beruvchi: \_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_ (ismi, familiyasi)

\_\_\_\_\_ yil  
(sana)

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish Tartibiga

### 3-ILOVA

## O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini maktab miqyosida o‘rganib chiqish bo‘yicha Metod birlashma bayoni namunasi

\_\_\_\_\_ tuman xalq ta’limi bo‘limi \_\_\_\_-sonli matabining  
fanlar yo‘nalishi Metod birlashmasi \_\_\_\_-sonli yig‘ilishining  
bayonnomasidan

### KO‘CHIRMA

\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-iyun \_\_\_\_\_ -sonli maktab

### Qatnashdilar:

\_\_\_\_\_ – metod birlashma raisi

**Qatnashdi:** Metod birlashmaning \_\_\_\_\_  
nafar a’zolari

**Qatnashmadi:** \_\_\_\_\_ nafar

### KUN TARTIBI

1. \_\_\_\_\_ fani o‘qituvchisi \_\_\_\_\_ ning ilg‘or ish tajribasini  
maktab miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida

### ESHITILDI:

Yig‘ilishni \_\_\_\_\_ – metodbirlashma raisi ochib berdi.

\_\_\_\_\_ so‘zi: o‘qituvchi kasbi qanchalik sharaflı bo‘lsa, shunchalik mashaqqatlı hamdir. Yosh avlodni tarbiyalashda, bilim berishda tajribali, ijodkor bunday o‘qituvchilarning mehnatini qadrlash kerak deb o‘ylayman.....

\_\_\_\_\_ so‘zi: bu o‘qituvchilarning ishlari bilan to‘liq tanishib chiqdim. Jumladan, \_\_\_\_\_ fani o‘qituvchisi \_\_\_\_\_ tajribasida adabiyotga qiziqmagan o‘quvchiga “Rasmini tasvirlab bergin-chi?”, “Qahramonga o‘z so‘zingni ayting-chi?” deb murojaat qilsa, qiziqqan o‘quvchiga “muallif fikrini qanday tushundingiz?” kabi tinimsiz ishlashini kuzatish mumkin. Bir soatlik darsda berilgan ta’lim o‘quvchining hayotida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

So‘z matabining \_\_\_\_\_ fani o‘qituvchisi \_\_\_\_\_ ga berildi.

\_\_\_\_\_ so‘zi: maktabda tajribamdan kelib qator tavsiya, qo‘llanma yaratdim. Hujjatlar, konferensiya maqollari va ijodiy ishlarimdan fotolavhalar ham keltirilgan. Bugungi kunda, mavzular asosida ko‘rgazmalar tayyorlayman, bu o‘quvchilarga aytgandan ko‘ra ko‘rgazma orqali tushuntirish samarali bo‘ladi.

Yig‘ilishda metodbirlashma raisi va a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlar e’tiborga olib tajribali o‘qituvchining ish tajribasini maktab miqyosida ommalashtirish bo‘yicha Pedagogika kengashiga taqdim etish masalasi bir ovozdan ma’qullandi.

“Qarshilar”- yo‘q, “Betaraflar”- yo‘q. Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida metodbirlashma yig‘ilishi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalari yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. \_\_\_\_\_ fani o‘qituvchisi \_\_\_\_\_ ning ilg‘or ish tajribalarini maktab miqyosida ommalashtirish yuzasidan Pedagogika kengashida ko‘rib chiqish va muhokama qilish uchun kiritilsin.

3. Qaror ijrosini ta’minalash metod birlashma raisi \_\_\_\_\_ zimmasiga yuklatilsin.

Maktab metodbirlashma raisi \_\_\_\_\_

Kotiba: \_\_\_\_\_

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati  
davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy  
metodikalarini ommalashtirish Tartibiga

#### 4-ILOVA

**O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan  
zamonaviy metodikalarini maktab miqyosida ommalashtirish bo‘yicha  
navbatdan tashqari Pedagogik kengash bayoni namunasi**

\_\_\_\_\_ tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli \_\_\_\_\_-sonli maktabining  
\_\_\_\_\_ -sonli Pedagogika kengashi bayonnomasidan

#### KO‘CHIRMA

2022-yil \_\_\_\_\_ - noyabr

\_\_\_\_\_ -maktab Majlislar zali

Rais: maktab direktori-

Kotiba: O‘TIBDO‘ -

Qatnashdi: Maktabning \_\_\_\_\_ nafar  
pedagogi

Qatnashmadi: \_\_\_\_\_ nafar, \_\_\_\_\_ nafari  
sababli

#### KUN TARTIBI

**Maktabda jamoa orasida o‘z bilimi, iqtidori, qobiliyati va yaratuvchanligi bilan  
o‘rnak ko‘rsatgan hamda maktab va tumanda tashkil etilgan tanlovlardan o‘quvchilar  
yuqori natijalarga erishayotgan \_\_\_\_\_ (FISH) – \_\_\_\_\_ fani  
o‘qituvchisining ishlarini ommalashtirish to‘g‘risida.**

#### ESHITILDI:

Masala yuzasidan o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari  
\_\_\_\_\_ so‘zga chiqib, ijodkor, talabchan, izlanuvchan, jamoatchi  
o‘qituvchilarining ilg‘or ishlarini maktab miqyosida ommalashtirish hamda tumanda va viloyat  
bosqichlariga tavsiya etishni aytib o‘tdi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘rgangan ilg‘or  
tajribalarini darslarida qo‘llaydigan, natijaviyligi sinalganligi ta’kidladi. O‘qituvchilarning  
darsda va sinfdan tashqari barcha o‘quvchilar bilan birgalikda hamohang ishlaydigan  
jonkuyar va zamonaviy o‘qituvchi ekanligi haqida hamkasblar fikr yuritdi. Metodik kengash  
raisi tomonidan tumanda o‘qituvchilar o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda faol ishtiroy etishi

va o‘quvchilarining faol ishtirok etishi uchun o‘z zimmasiga yuklatilgan barcha topshiriqlarni namunali bajarayotganligi yuzasidan asoslar taqdim etdi.

\_\_\_\_\_ o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rribbosari: Fanlararo integratsiya bugungi ta’limning asosini tashkil etmoqda. O‘zaro bog‘liqlik ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishish vositasigina emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir.

\_\_\_\_\_ oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi: O‘quv fanlari dasturi va darsliklarida uzviylik va uzlusizlikning ta’milanishi o‘quvchilarning fan asoslarini puxta o‘rganishlarida alohida ahamiyat kasb etsa, fanlararo aloqadorlik fanlarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Fanlararo bog‘liqlik ta’lim sifatini oshirishga, darslarning qiziqarli, mazmunli, tushunarli noan’anaviy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda maktab rahbariyati va jamoasi tomonidan bildirilgan fikrlar e’tiborga olib tajribali o‘qituvlarni maktabda ommalashtirish va tuman metodik kengashiga taqdim etish masalasi bir ovozdan ma’qullandi.

Yuqorida fikr-mulohazalar asosida pedagogik kengash yig‘ilishi

#### **QAROR QILADI:**

1. Maktab O‘TIBDO‘ \_\_\_\_\_ ning tajribali o‘qituvchilarning ilg‘or ishlari yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. \_\_\_\_\_ tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli \_\_\_\_\_-sonli maktabining \_\_\_\_\_ (*FISH*) – \_\_\_\_\_ fani o‘qituvchisining ilg‘or tajribalari maktab miqyosida ommalashtirilsin (*yoki sababi ko’rsatilgan holda ommalashtirishga tavsiya etilmasin*).

3. Ushbu qarorga muvofiq maktab miqyosida ommalashtirilgan ilg‘or ish tajribali o‘qituvchilarning metodik mahsulotlari elektron (pdf) shaklda qaror rasmiylashtirilgan sanadan boshlab bir oy muddatda ommalashtirish platformasiga joylashtirilsin.

**Pedagogik kengashi raisi** \_\_\_\_\_

**Kotiba:** \_\_\_\_\_



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ILG'OR ISH TAJRIBALARNI OMMALASHTIRISH ELEKTRON PLATFORMASI

BO'YICHA YO'RIQNOMA

TOSHKENT 2022

## 1. UMUMIY TUSHUNCHА

Umumiy o'rta ta'llim tizimi o'quv jarayonini samarali tashkil etish va ta'llim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or ish tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda xalq ta'llimi tizimi xodimlari o'rzasida o'zaro tajriba almashish ishlarni yo'lga qo'yildi. Ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish ishlari [www.ommalashtirish.uz](http://www.ommalashtirish.uz) elektron platformasi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida ushbu elektron platforma orqali umumta'llim maktabi o'qituvchilari shaxsiy kabinetiga ega bo'ladi. Ilg'or ish tajriba materiallari tuman (shahar), hudud (viloyat), respublika miqyosida sinflar, fanlar kesimida joylashtirishi lozim:


- O'quv metodik qo'llannmalar (o'quv metodik qo'llanna, tavsiyanomalar (.doc, .pdf)
- Dars ishlannmalar (xalqaro tajibalarga asoslangan, ilg'or interfaol metodlar bilan o'tilgan yuqori saviyadagi bir soatlik namuanali dars yoki to'garak mashg'uloti ishlannmasi (.doc, .pdf)
- Video mahsulotlar (Darsdagi yoki darsdan tashqari mashg'ulotlardagi interfaol metodlarni yoritib bergen dars ishlannmasi yoki shaxsiy innovatsion metodik tajribani tushuntirib beruvchi davomiyligi 7 minutgacha bo'lgan, hajmi 300 mb dan oshmag'an (.mp4) videorolik. Videoni qanday apparatda olingani e'tiborga olimmaydi



## 2. RO'VXATDAN O'TISH

Foydalanuvchi elektron platformada shaxsiy kabinetga ega bo'lishi uchun birinchi navbatda istagan veb – brauzer orqali tizim manzilini <http://ommalaشتirish.uz> yozadi hamda ro'yxatdan o'tish jarayonini boshlaydi. Buning uchun asosiy sayt oynasidagi mavjud ko'k rangli Ro'yxatdan o'tish tugmasi bosiladi. Bosilgandan so'ng Ro'yxatdan o'tish va tizimga kirish oynasi ochiladi

### *1. Ro'yxatdan o'tish tugmasi*




### *2. Ro'yxatdan o'tish va tizimga kirish oynasi*




Ro'yxatdan o'tish uchun birinchi navbatda ERP tizimi orqali kirish ya'ni ERP tugmasi orqali amalga oshiriladi. So'ngra, ro'yxatdan o'tish uchun mo'ljallangan oyna orqali foydalanuvchi o'zining passportidagi **14 ta raqamdan** iborat *JSHSHIR (PINFL)* va *Telefon raqamini* kiritadi. Navbatdagi bosqichda Tizim uchun kod ni foydalanuvchining mobil telefoniga yuborilgan sms orqali kod raqamga ega bo'ladi. Mobil telefonga yuborilgan kod foydalanuvchining tizimga kirish paroli vazifasini bajaradi. Tiklash oynasi orqali esa Tizim uchun kodni qayta yangilash yoki tiklab olish mumkin bo'ladi.

### 3. ERP tizimi orqali kirish tugmasi orqali ro'yxatdan o'tish


### 4. 14 ta raqamli JSHSHIR (PINFL), Telefon raqamini kiritish oynasi



### 5. Passportdagi 14 raqam



### 6. SMS orqali kodni olish oynasi





### 7. Parolni tiklash tugmasi



**14 ta raqamdan iborat JSHSHIR (PINFL) va Telefon raqamini kiritganingizdan so'ng, Shaxsiy mobil telefoningizga "RTM: Bank kod - (5 ta raqamdan iborat) keladi. Mobil telefoningizga SMS xabar orqali kelib tushgan kodni Kirish oynasining Parol boshlig'iga kiritasiz.**

**8. 5 ta raqamdan iborat kod**




**9. Tizimga kirish tugmasi**

### 3. FOYDALANUVCHI (O'QITUVCHI) INTERFEYSI

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tganidan so'ng, o'qituvchining tizim oynasi ochiladi. Ushbu oynada [www.ommalashtirish.uz](http://www.ommalashtirish.uz) elektron platformasiga har bir hududdan tizimda ro'yxatdan o'tgan umumta'lim maktabi o'qituvchilarning umumiy soni va platformaga joylashtirgan ishlarining umumiy statistikasini ko'rib borishlari mumkin bo'ladi. Platforma oynasining o'ng tomonida joylashgan tizim paneli bosilganida, o'qituvchi o'zining shaxsiy Profil, Mening ishlarim va Chiqish tugmalarini ko'rishi mumkin.

- **Profil oynasi** – Umumiy o'rta ta'limi maktabi o'qituvchilarini tizimda ro'yxatdan o'tish davomida o'zining shaxsiy ma'lumotlarini (*I.F.SH, Jinsi, Manzil, Telefon, Tug'ilgan sana, Roli, Ro'yxatdan o'tgan sana, Status*) kiritadi.
- **Mening ishlarim** – Ommalashtirish elektron platfromaga foydalanuvchi (o'qituvchi) o'zining metodik mahsulotlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarni (*mavzu, qisqacha ma'lumot muallif, turi, ko'rish va o'chirish*) ko'rib boradi.
- **Chiqish** – Tizimdan chiqib ketishi mumkin bo'лади.




10. Shaxsiy sahifa oynasi

11. Statisik ma'lumot


12. Hududiy o'qituvchilar soni

Foydalanuvchi (o'qituvchi) [www.ommalahtirish](http://www.ommalahtirish) elektron platformasi yordamida metodik mahsulotlarni Shaxsiy kabinetining "Ishlanmani jo'natish" elementi orqali yuboradi. Bunda o'qituvchi quyidagi ma'lumotlarni tizimga kirgizishi talab etiladi:




### 13. "Ishlanmani jo'natish" orqali metodik mahsulotlarni jo'natish oynasi

1. Muallif (I.F.SH) – metodik mahsulot muallifining to‘liq ism, familyasi kiritiladi.
  2. Mobil telefon – muallifining mobil telefon raqami
  3. Fan – o‘qituvchi qaysi fan mutaxassisligiga ega bo‘lsa, shu fandan tizimga ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish tavsiya etiladi.
  4. Sinf – fan o‘qituvchisi qaysi sinf o‘quvchilariga dars berayotgan bo‘lsa, shu sinf raqamini tanlay oladi.
  5. Mavzu – ommalashtirishga talabgor bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan metodik mahsulot mavzusini tizimga kiritadi.
  6. Turi – metodik mahsulot turi: o‘quv qo‘llanma, dars ishlamma, video ma’ruza formatini aniq ko‘rsatishi lozim.
  7. Faylni yuklash – tizimga metodik mahsul Faylini yuklaydi.
  8. Izoh – O‘qituvchi platformaga joylashtirayotgan metodik mahsulotini tasnifini yozib qoldirishi mumkin.
- “Ommalashtirish” oynasida o‘qituvchi boshqa hududdagi o‘qituvchining ishlarini (*ism familyasi, metodik mahsulot muallifi, mavzusi, metodik mahsulot turi, baholash va ommalashish darajalari*) kuzatib borishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, ushbu menu elementida kerakli metodik mahsulotlarni filtirlash mumkin bo‘ladi.



“Menin ishlarim” oynasi. Bunda ommalashtirish uchun joylashtirgan talabgor o‘zining metodik mahsulotlarini doimiy ravishda ko‘rib borishlari mumkin bo‘ladi.




## **15. "Mening ishlarim" orqali o'qituvchi o'zining metodik mahsulotlarini kuzatib borish oynasi**

**www.ommalashtirish** elektron platformada talabgor o‘zining ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida tizimga 3 xil turdagि metodik mahsulotlarini yuklashi uchun imkoniyat mayjud.


## **Metodik mahsulotlar: 1. O'quv metodik adabiyot (*qo'llanna*), 2. Dars ishlanna, 3. Videomaterial, 4. Audiomaterial**

O'quv metodik adabiyot – metodik mahsulotlarni tizimga yuklash uchun (*doc*, *docx*, *pdf*) formatlarida taqdim etishi mumkin bo'ladi.



16. O'quv metodik mahsulotlarni ko'rinishi interfeysi

Dars ishlamma – o'qituvchi dars ishlammalarini, taqdimot ko'rinishidagi mahsulotlarini (*ppt*, *pptx*) formatlarida tizimga yuklashi mumkin.




17. Dars ishlamma taqdimotlar ko'rinishi oynasi

**Videomaterial – talabgor 300 mb hajmdagi video ko‘rinishidagi materialarni (*mp4, mpeg, avi, flv, mov, wmv, mpg, mkv, webm*) formatlarida yuklashi tavsiya etiladi.**



*18. Videodars materiali oymasi*

**Audiomaterial** – ilg’orish tajibalarni ommalashtirish maqsadida talabgor audio (*mp3, ogg, ogv*) ko’rinishidagi 300 mb hajmdagi o’quv metodik mahsulotlarini yuklashi mumkin bo’ladi.



## **19. Audiomatr materiali oynası**

O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati  
davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy  
metodikalarini ommalashtirish Tartibiga

## 6-ILOVA

### O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish bo'yicha fanlar

#### RO'YXATI

T/r	Fanlarlar ro'yxati	Sinflar
1	Boshlang'ich ta'lif	1-4 sinf
2	Ona tili va adabiyoti (o'zbek)	5-11 sinflar
3	Ona tili va adabiyoti (qozoq)	5-11 sinflar
4	Ona tili va adabiyoti (turkman)	5-11 sinflar
5	Ona tili va adabiyoti (tojik)	5-11 sinflar
6	Ona tili va adabiyoti (qirg'iz)	5-11 sinflar
7	Ona tili va adabiyoti (qoraqalpoq)	5-11 sinflar
8	Ona tili va adabiyoti (rus)	5-11 sinflar
9	Rus tili (milliy sinf)	2-11 sinflar
10	Chet tili (ingliz, nemis, fransuz)	1-11 sinflar
11	Tarix	5-11 sinflar
12	Davlat va huquq asoslari	8-11 sinflar
13	Tarbiya	5-11 sinflar
14	Matematika	5-11 sinflar
15	Informatika	5-11 sinflar
16	Fizika va astronomiya	7-11 sinflar
17	Kimyo	7-11 sinflar
18	Biologiya	5, 7-11 sinflar
19	Geografiya	5, 7-10 sinflar
20	Tabiiy fan	5-6 sinflar
21	Iqtisodiy bilim asoslari (tadbirkorlik asoslari)	8-9 va 11-sinflar
22	Musiqa madaniyati	5-7 sinflar
23	Tasviriy san'at va chizmachilik	5-9 sinflar
24	Texnologiya	5-9 sinflar
25	Jismoniy tarbiya	5-11 sinflar
26	Chaqiruvga qadar boshlang'ich ta'lif	10-11 sinflar
27	O'zbek tili (davlat tili)	2-11 sinflar
28	Qoraqalpoq tili	2-11 sinflar

\*milliy o'quv dasturi asosida fanlar kesimidagi sinflar o'zgarishi mumkin

O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati  
davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy  
metodikalarini ommalashtirish Tartibiga  
**7-ILOVA**

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va zamonaviy metodikalarining  
ommalashtirilganligi bo'yicha maxsus sertifikat namunasi**



Respublika  
Ta'lim Markazi

Ish tajriba ommalashtirilganligi to'g'risida

## **SERTIFIKAT**

(hudud nomi)

(tuman, shahar nomi)

(tashkilot, muassasa nomi)

(lavozimi)

ning

(ismi sharifi)

ish tajribasi \_\_\_\_\_ miqyosida

(ommalashtirish darajasi: tuman, shahar, viloyat, respublika)

### **OMMALASHTIRILDI.**

Asos: Respublika ta'lim markazi huzuridagi Ilmiy-metodik kengashining  
20 \_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_ »- \_\_\_\_\_ dagi « \_\_\_\_ » - sonli qarori.

Ushbu sertifikatning amal qilish muddati – 3 yil.

Respublika ta'lim  
markazi direktori

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(imzo, muhr)

(ismi sharifi)

Sana: \_\_\_\_\_ Qayd raqami: \_\_\_\_\_